QURILISH CHIZMACHILIGI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Shaudirbayev Azamat Omirbayevich
Muratbayeva Kamila Ikram qizi
Xojametova Raushan Jolmirza qizi
Bedaq nomidagi Qoraqolpoǵ Davlat universiteti talabalari

Annotatsiya: *Qurilish chizmalari o`z xususiyatiga ko`ra texnik va mashinasozlik chizmalaridan katta farq qiladi. Buning sababi, tasvirlanayotgan ob'ektlarning katta o`lchamlarda bo`lishi; konstruksiya tarkibiga kiruvchi materiallar turlarining ko`pligi; sanitariyatexnika jihozlarini joylashtirish qoidalari va ularning chizmada belgilanishi; plan, qirqim, fasadni bajarishning o`ziga xos tomonlari; bosh plan chizmalari va undagi shartli belgilar .*

Kalit so'zlar: *Qurilish chizmachiligi, arxitektura, chizmachilik, grafik tasvir, plan chizmasi, o'quvchilar;*

Mashinasozlik chizmachiligidan yana bir farqli ravishda qurilish chizmachiligida arxitektura qurilishi chizmalarining nomlari qog'oz listidagi har bir tasvirning ustiga yoziladi (masalan, 1-qavat plani; B-B (1-1, 2-2...) qirqim; 1-7 fasad: 1... 7 bino koordinasion o`qlari). Bino fasadi akvarel bo`yog`ida bo yaladi va uning yaqqolligini orttirish maqsadida ko`pincha soyalari ham ko`rsatiladi. Fasad 0.2...0.4 mm qalinlikdagi chiziqlarda bajariladi. Undan keyin sanoat va qurilishning hamma sohalari ob'ektlari yagona standartlar (DST 305-68) bo`yicha tasvirlanishi qayd qilib o'tiladi. Bu ro`yxatni yana davom qildirish mumkin. Shuningdek chizmachilik darsligida binoning plani tushunchalarini alohida fasl (paragraf) qilib kiritgan.

Bino plani nazariyasida umumiy bo'lgan ma'lumotlar kiritilgan bo'lib, undagi ko'rsatmalar plan hosil qilish yo'l-yo'riqlari, texnikasi, jixozlash elementlari mavzu mazmunini tashkil qiladi.

Planda bino xonalarining joylashishi, konstruktiv elementlar va sanitariya texnika jihozlarini joylashtirish ko'rsatiladi. Shuningdek plan chizishda foydalanish qonun qoidalari, ko'p qavatli binolarda plandan foydalanish ko'rsatmalari ham berilgan.Plan tushunchasi mazmunini bo'luvchi rejalash (koordinasiya) o'qlari elementar qoidalar bilan nazariy va amaliy jixatlarini kiritgan.

Mavzuni nazariy qismini ko'proq chizmalarga tayanib izoxlagan. Unda shuni alohida takidlashimiz lozimki, tasvirlangan grafik tasvirdan o'quvchi tassavvuri doirasida plan hosil qilish konsepsiyasini shakllantirishga qulaylik yaratadi.

Grafik tasvirlarda planni hosil qilish ko'rsatmasi, uy planida sanitariya - texnika jixozlari bilan berilgan tasvirlarini ko'ramiz .Ko'proq tasvirlar bilan tushuntirish o'quvchilarning qiziqish xususiyatlarini shakllantiradi. Undagi plan hosil qilish tasviri asosiy ko'rsatmadir.Darslikda qurilish chizmachiligi Binoning plani" mavzusida bir qator nazariy

malumotlarning muhim tushunchalarini aks ettirilganligi, mavzu mazmunini birmuncha ochib berishda erishilgan.

Berilgan grafik qismidagi planda o'lcham santimetrda bajarilgan va zaririy dement eshik belgilanish ko'rsatmasi belgilanmaganligini uchratamiz.Bunda o'quvchiga noaniqlik tushunchalariga olib kelishi mumkin. Devor va pardevorlarning plandagi qirqimlari shtrixlanmaydi (bu yerda ularni tush yoki akvarelda bo`yalsa yanada yaxshi). O'quvchilarga plan chizmasini chizish ko'nikmalarini shakillantirishda shartli belgilar, elementlar ( eshik, dereza devorlar va hokazolar) o'lchamlari bilan kirtilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Bir soatlik dars amaliyoti qismiga kiritilgan Binoning qirqimi" mavzusi mazmunini P.Odilov va boshqalar darsligi qurilish chizmachiligi bo'limidan ko'rib chiqamiz. Qirqim hosil qilish tartibi, shuningdek qirqim deb nomlanishi va binoning konstruksiyalari.elementar belgi va xususiyatlari nomlari jamlanmasi mavzuning mazariy qismini yoritilgan. O'quvchilarga arxitektura qurilishda ishlatiladigan barcha qismlari nomlari haqida ma'lumot berilgan.

Qirqimning grafik tasvirlanishiga nazar solsak bunda, bino yaqqol tasvirini shaffof tekislik bilan kesib hosil qilingan qirqimini va ikki qavatli bino qirqimi eksplikatsiyasi bilan birga berilganligi ko'ramiz .Ikki qavatli bino qirqimi va undagi eksplikatsiyasi o'quvchiga bino konstruksiyalari hamda elementlari nomlarini tanishlarida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.“Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari. Shaharsozlik normalari va qoidalari. O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo’mitasi. Toshkent 2009.

2.Raxmonov I. Chizmalarni chizish va o`qish. - T., «O`qituvchi». 1992.

3.P.Odilov va boshqalar. Chizmachilik., - T., TDPU. 2000.

4.Yodgorov J. va boshqalar. Chizmachilik - T., «O`qituvchi». 1992.